



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 23 - yanvar

17-9-0-Q/24

Sirdaryo viloyati hokimligi

Viloyatda 2024-yilda davlat mulkidan foydalanganlik uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-sonli "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 32- 33- va 34-bandlari asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi orqali Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda kelishilib taqdim etilgan 2024-yilda viloyatda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Viloyatda 2024-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga, ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar 2-ilovaga, Radio, uyali aloqa va peyjer aloqasi uchun ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat boshqarma va tashkilotlari, davlat mulkini balansda saqlovchilarning mansabdor shaxslari hamda tuman va shahar hokimliklari zimmasiga:

balansda saqlovchi tasarrufidagi davlat mulkini xatlovdan o'tkazishga va foydalanilmasdan bo'sh turgan va yoki maqsadsiz, samarasiz foydalanilayotgan Davlat mulki haqida har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha bo'lgan muddatda ijaraga beruvchiga bu mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etish;

balansda saqlovchining yuqori turuvchi tashkilotlari ushbu ma'lumotlarni

Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat boshqarmasiga o‘z vaqtida va to‘liq taqdim etilishi ustidan idoraviy nazoratni ta’minlash;

davlat mulkini ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berilishiga, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulkning parametrlari va soni noto‘g‘ri qayd etilishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa vazifalar yuklatilsin.

3. Viloyat hududida 2024-yilda davlat mulki bo‘lgan binolar va xonalarda joylashgan byudjet tashkilotlari uchun ijara to‘lovining nol stavkasi belgilab qo‘yilsin.

4. Kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi (B.Radjabov):

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar, davlat tashkiloti, korxonasi va muassasasi balansida bo‘lgan yerlar hamda davlat mulki obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat boshqarmasiga doimiy ravishda har chorak yakuni bilan taqdim etib borsin.

5. Mazkur qaror “Yangi Sirdaryo” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R.Boboyev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi v.v.b



R.Boboyev

Sirdaryo viloyat hokimining
2024-yil 23-yanvardagi
17-9-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Izoh:

- Davlat mufikini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi "Davlatga tegishli savd havalalari tadbirkorlik sub'yektlariga "E-auction" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 441-son qaroriga asosan qo'llanilgan faoliyat tartibi

Sirdaryo viloyat hokimining
2024-yil 23-yanvardagi
17-9-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Ijara haqining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar

I. Hududiy zonalar koeffitsiyenti – (Kz)			
Guruhlar raqami	Hududlar nomi	Zonalar	Hududiy zonalar koeffitsiyenti
1	Guliston shahri	I	3,0
2	Sirdaryo shahri Yangiyer shahri Baxt shahri Shirin shahri	II	2,6
3	Oqoltin tumani Sirdaryo tumani (boshqa hududlari)	III	2,3
4	Sardoba tumani Sayxunobod tumani Guliston tumani	IV	2,2
5	Boyovut tumani Mirzaobod tumani Xovos tumani	V	2,0
II. Binoning qurilish turi bo'yicha koeffitsiyenti – (Kk)			
2.1	Alohida turgan bino		1,5
2.2	Binoga taqab qurilgan		1,4
2.3	Binoning ustki qismi, cherdak, bolaxona		0,9
2.4	Yarim yer to'la, yer to'la		0,7
2.5	Betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar		0,8
III. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kx)			
3.1	Yer maydonidan foydalanganda va yer maydoni mavjud bo'lganda		0,8
IV. Tijorat maqsadida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti – (Ko)			
4.1	Asosiy qatnov yo'llarida joylashganda		0,6
4.2	Ikkinchi darajali transport qatnovi yo'llarida joylashganda		0,5

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 35-bandiga muvofiq, mol-mulkning boshqa turlari uchun ijara to'lovi stavkasini hisoblashda, agar ijaraga topshirilayotgan mulkdan amalda foydalanilgan muddat, undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo'lmasa yoki ushbu muddatda teng bo'lsa, yoki amalda

foydalanilgan muddatni aniqlash mumkin bo'lsa - ijara to'lovi stavkasi mol-mulk tiklanish qiymatining 30 foizidan, agar ijaraga topshirilayotgan mol-mulkdan amalda foydalanilgan muddat undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo'lsa - ijara to'lovi stavkasi mol-mulk tiklanish qiymatining 20 foizidan kam bo'lishi mumkin emas. Samarali foydalanish muddati O'zbekiston Respublikasi "Soliq kodeksi"ning 306-moddasida ko'rsatilgan tasniflashdan kelib chiqqan belgilanadi.

Balansda saqlovchi tashkilotning rahbari va bosh hisobchisi ijaraga berilayotgan davlat mulki to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotning ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi.

Sirdaryo viloyat hokimining
2024-yil 23-yanvardagi
17-9-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Radio, uyali aloqa va peyjer aloqasi uchun ijara haqining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

I. Hududiy zonalar koeffitsiyenti – (Kz)			
Guruhlar raqami	Hududlar nomi	Zonalar	Hududiy zonalar koeffitsiyenti
1	Guliston shahri Sirdaryo shahri	I	2,5
2	Yangiyer shahri Baxt shahri Shirin shahri	II	2,0
3	Oqoltin tumani Sirdaryo tumani Boyovut tumani Guliston tumani Sayxunobod tumani	III	1,8
4	Sardoba tumani Mirzaobod tumani Xovos tumani	IV	1,5
II. Binoning qurilish turi bo‘yicha koeffitsiyenti – (Kq)			
2.1	Alohida turgan bino		1,5
2.2	Binoga taqab qurilgan		1,4
2.3	Binoning ustki qismi, cherdak, bolaxona		0,5
2.4	Yarim yer to‘la, yer to‘la		0,7
2.5	Betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar		0,8
III. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh)			
3.1	Yer maydonidan foydalanganda va yer maydoni mavjud bo‘lganda		0,5
IV. Tijorat maqsadida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti – (Ko)			
4.1	Asosiy qatnov yo‘llarida joylashganda		0,6
4.2	Ikkinchi darajali transport qatnovi yo‘llarida joylashganda		0,5

* Radio, uyali va peyjer aloqa antenna va boshqa texnik qurilmalar uchun ijara to‘lovining tayanch stavkasi miqdori antenna yoki boshqa texnik qurilmalarni tortgich qoziqlari egallagan umumiy maydon bo‘yicha hisoblanadi.

Binolar va inshootlar bo‘yicha ijara to‘lovini (ijara to‘lovining tayanch stavkasi) hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$T_s = E_s \times K_z \times (K_q + K_h + K_o)$$

Bunda:

T_s—bir yilga bir kv. metr uchun ijara to‘lovining tayanch stavkasi; **E_s**—bir yilga bir kv. metr uchun eng kam ijara stavkasi.